

Karimjon MAMTALIEV,
O'zbekiston Milliy universiteti Sotsiologiya kafedrasida tadqiqotchisi
 E-mail: roadlink2021@yandex.ru

Sots.f.d(DSc), dotsent X.Xusanova taqrizi ostida

INTERNET MA'LUMOTLARNI KONTENT-TAHLILLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada internetdagi axborot oqimlarining global ta'siri natijasida inson va jamiyat hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni hamda bu jarayonga ta'sir etayotgan axborot kontentlarini tahlil qilish vositasi hisoblangan kontent-tahlil uslubining nazariy asoslari to'g'risida ilmiy tahlil olib borilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, kontent-tahlil, metod tahlil modeli, ommaviy kommunikatsiyalar, empirik ma'lumot.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF CONTENT-ANALYSIS OF INTERNET DATA

Annotation

This article provides a scientific analysis of the process of social changes taking place in human life and society as a result of the global impact of information flows on the Internet, as well as the theoretical foundations of the content analysis method, which is considered as a tool for analyzing information content that affects this process.

Key words: Information, content analysis, method, analytical model, mass communications, empirical data.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНТЕНТ-АНАЛИЗА ИНТЕРНЕТ ДАННЫХ

Аннотация

В данной статье проведен научный анализ процесса социальных изменений, происходящих в жизни человека и общества в результате глобального воздействия информационных потоков в Интернете, а также теоретических основ метода контент-анализа, который рассматривается как инструмент анализа информационного контента, влияющего на этот процесс.

Ключевые слова: Информация, контент-анализ, метод, аналитическая модель, массовые коммуникации, эмпирические данные.

Kirish. Axborotlashgan jamiyat kirib kelishi bilan dunyoda globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib, axborot sohasiga talab nihoyatda ortib bormoqda. Bunda o'zaro cheksiz axborot almashishning kengayishi, ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvning chuqurlashuvi va intensivlashuvi holatida jamoatchilikni buzg'unchi g'oya, vayronkor mafkuralardan saqlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jamoatchilik fikrini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari yangi turi ijtimoiy tarmoq va messenjerlarni ta'sirini tizimli o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylangan. SHu bois undagi materiallarni kategoriyalash va tasniflash hamda undagi ma'lumotlarni kontent-tahlilini o'rganishga bo'lgan zarurat yanada oshib bormoqda.

Dunyo aholisining 70,5 % (5,66 mlrd.) qismi global internet tarmog'ida xizmatlaridan foydalanib kelmoqda. Shundan 90 % dan ortig'i turli ijtimoiy tarmoq va messenjerlarning faol foydalanuvchisi hisoblanadi [1]. Internet tarmog'idan ommaviy foydalanish sharoitida, undagi axborot oqimini inson ruhiyatiga ta'sir etishi orqali shaxs, jamiyat, davlat hayoti va faoliyatiga borgan sari ta'siri kuchayib borishi tendensiyasi kuzatilmoqda. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimiz internet foydalanuvchilari 22,6 mln kishini tashkil qiladi. SHundan 15,5 mln kishi turli ijtimoiy tarmoq va messenjerlardan ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 7,6 mln nafari faol foydalanuvchilar toifasiga [2] kiradi.

Jamiyatdagi axborot-kommunikatsion muhitning asosiy ishtirokchilari sifatida davlat boshqaruv organlari, OAVlarining egalari, OAVlar, media-kontent yaratuvchilari, reklama va e'lon beruvchilar va turli foydalanuvchilar hisoblanishadi. Axborot oqimi va ko'lamini kengayishi bilan ularning yoshlar ongiga manipulyatsion ta'siri natijasida tahdidlarni jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'chishi uchun qulay shart-sharoit yaratishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiyalaridan to'lagicha foydalanish shaxsni zamonaviy jamiyatdagi jarayonlarda to'la ishtirokini ta'minlaydi. Ayniqsa internet tarmog'idan foydalanish shaxsni har joyda va har qaysi vaqtda jamiyatning boshqa a'zolari bilan faol aloqasini ta'minlaydi. Lekin shu bilan birga shaxsni turli axborot-psixologik tahdidlarga duch kelish ehtimolligini ham oshiradi. Bundan tashqari, Internetdagi xususan, ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi axborot oqimini muntazam tahlil qilib borish orqali, jamoatchilik fikriga salbiy ta'sir qiluvchi salbiy va noqonuniy kontentlarni aniqlash va ularni ta'sirini kamaytirish bo'yicha faoliyatni yanada takomillashtirish zarurati tug'ilmog'ida. Yuqoridagilardan kelib chiqib, internetdagi axborot oqimini tahlil qilib borish zaruriyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, internetdagi axborot oqimi ta'sirida jamoatchilik fikriga o'zgartirishga qaratilgan texnologiyalarning keng qo'llanilganligi;

ikkinchidan, axborot oqimidagi ma'lumotlarni baholash va ma'lum kategoriyalar bo'yicha bo'yicha turkumlash orqali axborot ta'sir yo'nalishini aniqlashning zarurati;

uchinchidan, internet tarmog'ida salbiy xarakterdagi va noqonuniy kontentlarning o'sib borayotganligi;

to'rtinchidan, tarmoqdagi ma'lumotlarni jamoatchilik fikrining shakllanishiga ta'sirini aniqlash metodlarining takomillashtirish zarurligi;

beshinchidan, axborotlashgan jamiyatda sotsiumdagi mavjud ommaviy kommunikatsiyalar orqali axborot almashinuvi va ular o'rtasida qayta aloqa yuzaga kelayotganligi.

Yuqorida qayd etilganidek, globallashuv sharoitida ommaviy kommunikatsiyalar, xususan ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi axborot oqimini doimiy monitoringi orqali, tarmoqdagi salbiy ta'sirga ega va zararli kontentlarni aniqlash hamda ularning jamoatchilik fikriga salbiy ta'sirini kamaytirish doimiy ravishda tahlil olib borishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy dunyoda internet xususan, ijtimoiy tarmoq va messenjerlar axborot almashinuvining o'ziga xos fenomeniga aylandi. Undagi axborot oqimini kontent-tahlil qilish bo'yicha bir nechta fan va soha vakillari tadqiqot olib borishgan. Aksariyat nazariy-metodologik yondashuvlarning ildizi "axborotlashgan jamiyat" nazariyasi

doirada bajarilgan. Ushbu masala yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarni shartli ravishda 4 guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh olimlariga axborot oqimini nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etgan olimlarni kiritishimiz mumkin. Xususan, kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan ma'lumotlar almashinuvining yangi bosqichi tufayli yangi nazariyalar XX asrning 80-yillarida Yapon olimi Y.Masuda tomonidan "axborotlashgan" jamiyat atamasi doirasida tadqiq etilgan[3]. Y.Masuda axborotning nafaqat ko'pligi, balki uni mazmunan anglash va unga tayanish jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini isbotladi. Yangi axborotlashgan jamiyat nazariyasining metodologik ishlanmalarini [4] U. Dayzard, E. Toffler kabi olimlarning ishlarida kuzatishimiz mumkin. E.Toffler insoniyat taraqqiyotining "uchinchi to'lqini" faqat axborot orqali amalga oshirishini konseptual jihatdan asoslab bergan. Axborotlar orqali muloqot shakli va jamiyatning tubdan yangi modeli sifatida ijtimoiy tarmoqlarni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari M. Kastells [5] tomonidan tadqiq etila boshlangan.

G.Maklyuen "vositalar nazariyasi"da axborotni fikrni o'zgartiruvchilik xususiyatiga urg'u berib, axborotlashgan jamiyatda elektron kommunikatsiya g'alabasi shaxsning intellektual qobiliyati va ijodiy salohiyatini oshiruvchi vosita, deb hisoblaydi [6]. Rus olimlari, jumladan, Y.Zasurskiy "Ommaviy kommunikatsiyalar jahon fanida mutlaqo yangi ilmiy yo'nalishni keltirib chiqardi" deb hisoblaydi, E.Proxorov jurnalistika sotsiologiyasini yaxlit tuzilma sifatida tadqiq etgan bo'lsa, G.Pochepsov axborotlashgan jamiyatda OAV takomillashuviga "yangi kommunikativ makon" sifatida yondashgan, A.Kiselev axborotlashgan jamiyatning kommunikatsiyalar taraqqiyoti bilan bog'liqligini o'rgangan [7].


Internetdagi axborotlar ta'sirda jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlarni tadqiq etishgan ikkinchi guruh olimlaridan xususan, ingliz tadqiqotchisi R. Kollinz [8], o'z asarlarida muloqot shakli va jamiyatning tubdan yangi modeli sifatida ijtimoiy tarmoqlarni o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari o'rganilib, unga ko'ra tarmoqlar ijtimoiy tuzilmada ijtimoiy aloqalar to'plami sifatida ko'rib chiqishni va shaxslararo aloqa orqali munosabatlarga muhim vosita aylanishi ko'rsatib o'tilgan. AQSHlik tadqiqotchi R. Jones ijtimoiy tarmoqdagi ma'lumotlarni ular tarqatayotgan axborotlarga klassifikatsiyalash borasida izlanishlar olib boragan [9] bo'lsa, L.Safk, D.Break kabi tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoq imkoniyatlarni pozitiv va salbiy ta'sirni o'rganishgan.


Uchinchi guruh olimlariga kontent-analiz metodini ko'llash va ijtimoiy tarmoqlarda axborotlar monitoringini olib borish borasidagi yondashuvlar borasida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarni kiritishimiz mumkin. Jumladan Rossiyalik tadqiqotchi E.Tarshis Kontent-tahlil olib borish qoidalari va metodologiyasi yoritgan bo'lsa, I. Dmitriev kontent-tahlilni turli sohalarida qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borgan [10]. Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi bo'yicha zamonaviy yondashuvlar hamda ularda axborot-kommunikatsion dasuriy ta'minotlarni qo'llash bo'yicha belorussiyalik olim V.Stepanov izlanishlarni keltirish mumkin. Uning tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoq va messenjerlarni axborot oqimini monitoring qilishning zamonaviy metodlari, axborot materiallarni tasniflovchi instrumentlar borasida so'z boradi [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik va jurnalistika sohalaridagi muammolarni tahlil qilishda kontent-tahlil metodi keng qo'llanib kelinmoqda. Kontent-tahlil [12] bu ijtimoiy fanlar sohasidagi tadqiqotlarning standart usuli bo'lib, tahlil predmeti axborot massivlari mazmuni va kommunikativ aloqadorligini aniqlashga qaratilgan maxsus empirik tadqiqot usuli hisoblanadi.

Kontent-tahlilni o'ziga xos xususiyati shundaki, tadqiq etilayotgan mavzu doirasida ma'lum axborot massivi bo'yicha u yoki bu ma'noviy birliklarni aks etishi va qaytalanishni hisobga olishni ko'zda tutadi. Kontent-tahlil (content-analysis) atamasi birinchi bo'lib, AQSHlik jurnalistlar D.Uipkins, A.Tenni, D.Spiid, B.Mettyular tomonidan qo'llanilgan. Fransuz jurnalisti J.Kayzer bu metod doirasida amalga oshiriladigan tahlilning metodik qoidalari borasida tadqiqotlar olib borgan [13].

Bu metod dastlab ommaviy kommunikatsiyalardagi ma'lumotlar mazmunini miqdoriy ko'rsatkichlarda ifoda etishga qaratilgan. Bu metod asosidagi birinchi sotsiologik tadqiqotlar 1910 yilda germaniyalik sotsiolog olim M.Veber tomonidan ommaviy aksiyalar davrida gazetalardagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida amalga oshirilgan. Keyingroq 1937 yilda bu usul AQSH prezidentining inauguratsiya marosimida so'zlagan nutqini tahlil qilish uchun qo'llanilgan. Yuqoridagi ilmiy xulosalar asosida kontent-tahlil metodi orqali internetdagi axborot oqimini monitoring qilishning nazariy jihatdan algoritmi quyidagilardan iborat bo'ladi (1-rasm).





1-rasm. Axborot oqimini monitoring qilishning nazariy algoritmi

Tahlil va natijalar. Kontent-tahlilning mohiyati verbal axborotlarni miqdoriy ko'rinishda keltirilgan matnlardagi ijtimoiy voqealikalarni aniqlash hisoblanadi. Kontent-tahlil metodi borasida ko'plab olimlar turli fikr bildirgan bo'lib, ularning aksariyati o'zlari ijod qilgan yo'nalishlari va davrlari xususiyatlaridan kelib chiqib xulosa va yondashuvlar bergan. Jumladan, amerikalik tadqiqotchilar J. Djeri [14] xulosalariga ko'ra, bu kommunikatsiya vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarni sifatini belgilari asosida tizimlashtirilgan holda empirik ma'lumot olish mumkin bo'lgan metod hisoblanadi. D. Mangeym va R. Rich [15] kabi olimlarni fikricha, axborot manbalarini shakli va mazmuniga ko'ra baholash va sharhlash imkonini beruvchi raqamli qayta ishlash metodidir. Rossiyalik tadqiqotchi V.Ivanovga ko'ra, bu metod matnlarni kvantifikatsion [16] qayta ishlashga asoslangan sifat-miqdoriy turdagi metod hisoblanadi. E.Tarshis [10] bu metodga matnlar mazmunidagi ijtimoiy haqiqatlarni tahlil qilish orqali ma'lumotlarni umumlashtirish texnikasi sifatida baho bergan. Yuqoridagi ilmiy xulosalarda asosan ma'lumotlarni ko'p o'lchovli statistik metodi haqida so'z boradi. Shu jihatni inobatga olgan holda, ularning ta'riflari asosida quyidagicha uch guruhga bo'lish mumkin;

- a) semantik statistika;
- b) kommunikatsiyalar mazmunining ob'ektiv miqdoriy tahlil qilish texnikasi;
- v) ma'lumotlarga ob'ektiv va tizimli tavsif berish yordamida umumlashtirish texnikasi.

Xulosa va takliflar. Kontent-tahlilni empirik tadqiqotlar bilan bog'liq ilmiy ishlanmalarning aksariyati jamoatchilik fikrni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Kontent-tahlil metodi uchun kommunikatsiya natijasidagi barcha aloqa predmetlari (audioyozuv, yozma hujjatlar, video va elektron hujjatlar) tahlil predmeti bo'lib hisoblanishi mumkin [17]. Bu sohalarida kontent-tahlildan foydalanish quyidagi jihatlarni e'tiborga olishni talab etadi: 1) o'rganilayotgan hodisalarni tizimlashtirish; 2) kommunikatsiya modelni yaratish; 3) tahlil kategoriyalarini aniqlashtirish; 4) yashirin ma'nolarga asosiy e'tiborni qaratish; 5) kundalik jarayonlarni tushunish va sharhlashga e'tibor qaratish; 6) qarama-qarshi ustuvor yo'nalishlarni ko'ra olish; 7) belgilarni semiotik va pragmatik nazariyasiga yo'naltirish; 8) har bir matnning tarkibiy tahlili bo'yicha alohida yondashish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, internet va boshqa ommaviy kommunikatsion vositalarning jamiyat hayotida ahamiyati yanada oshib, jamiyatdagi voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'z ta'siri o'tkaza olish darajasiga chiqdi. Ushbu maqola doirasida axborot oqimlarining global ta'siri natijasida inson va jamiyat hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni hamda bu jarayonga ta'sir etayotgan axborot kontentlarini tahlil qilish uslubi, texnikasi va vositalari tahlil etildi. Aniqlangan muammolarning hal etilishi istiqbolida ushbu yo'nalishdagi tahliliy faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://datareportal.com/reports/digital-2023>. Мурожаат санаси: 23 ноябрь 2023 йил.
2. <https://datareportal.com/reports/digital-2023-uzbekistan>. Мурожаат санаси: 23 ноябрь 2023 йил.
3. Masuda Y. The information society as Postindustrial Society: World Future Society / - Washington: D.B USA, 1983. – P.139.
4. Дайзард У. Наступление информационного века // Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П.С. Гуревича. – М.: Прогресс, 1986. – 343 с // Тоффлер Э. Шок будущего, 1970. – М.: АСТ, 2008. – 560 с.
5. Кастельс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург, 2004.
6. Маклюэн Г.М. Коммуникационная революция. – М.: Наука, 2000. – С. 75.; Тоффлер Э. Третья волна. – М.: Издательство АСТ, 1999.; Сиберт Ф.С., Шрамм У., Питерсон Т. Четыре теории прессы / Пер. с англ. М.Полевая. – М.: Вагриус, 1998. – С. 224.
7. Засурский Я.Н. Социологические аспекты журналистской науки. // Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. 2006. – № 1. – С. 5.; Социология журналистики. /Под общей ред. Е.П.Прохорова. – М.: МГУ, 1981.; Почепцов Г. Теория и практика коммуникации. – М.: Центр, 1998. – С. 8.; Киселев А.С. Роль нарождающегося информационного общества в развитии мировой цивилизации. – М., 2005. – С.81.
8. Коллинз Р. Социология философий. Глобальная теория интеллектуального изменения. Новосибирск, 2002.
9. Ron J. Social Media Marketing 101. Part 1. URL: <http://searchenginewatch.com/3632809.://> Safk o L., Brake D. K. Th e social media bible: tactics, tools, and strategies for business success. Hoboken, N. J.: John Wiley & Sons, 2009. XVIII. - 821 p.
10. Таршис Е. Контент анализ: Принципы методология – М.: Книжный дом «Либероком», 2013. – 176 с.; Дмитриев И. Контент-анализ: сущность, задачи, процедуры. – М., 2005.
11. Степанов В.А. Социальные медиа. – Минск: БГУ, 2020. – 115 с.
12. Дмитриев И. Контент-анализ: сущность, задачи, процедуры / - М. 2005. – С 7.
13. Российская социологическая энциклопедия. Под общей редакцией академика РАН Г.В. Осипова – М., 1998.
14. Collins Dictionary of Sociology. – М.: Вече, АСТ, 2001. Т. 2. II-Я.

15. Мангейм Дж.Б., Рич Р.К. Политология: Методы исследования. – М.: Издательство «Весь Мир», 1997. – 544 с.
16. Контент-анализ: Принципы методологии. (Построение теоретической базы. Онтология, аналитика и феноменология текста. Программа исследования). Изд. 2-е стереотип. – М.:ЛЕНАНД, 2018 – 176 с.
17. Дмитриев И. Контент-анализ: сущность, задачи, процедуры. – М., 2005.